

Surxondaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishi


2025-yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. Surxondaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni
- II. Surxondaryo viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Surxondaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni

2025-yilning 1-iyul holatiga ko'ra Viloyatda 3164 ta sanoat korxonalarini faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalarini soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 824 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 26,0 % i) boshqa nometal mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 732 tasi (23,1 %) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 281 tasi (8,9 %) mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishga, 242 tasi (7,6 %) kiyim ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni
1-iyul holatiga ko'ra



II. Surxondaryo viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025-yilning yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalari tomonidan 8 068,3 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 107,2 % ni tashkil etdi.

| | Hajmi, mlrd so'm | Fizik hajm indeksi, % da |
|-----------------------------|---------------------|-----------------------------|
| Surxondaryo viloyati | 8 068,3 | 107,2 |
| Termiz shahri | 876,5 | 106,9 |
| <i>tumanlar:</i> | | |
| Angor tumani | 247,9 | 107,3 |
| Bandixon tumani | 133,2 | 120,7 |
| Boysun tumani | 121,4 | 106,8 |
| Denov tumani | 646,8 | 110,4 |
| Jarqo'rg'on tumani | 638,0 | 105,3 |
| Qumqo'rg'on tumani | 442,7 | 116,3 |
| Qiziriq tumani | 211,2 | 101,6 |
| Muzrabot tumani | 470,0 | 109,1 |
| Oltinsoy tumani | 207,5 | 109,2 |
| Sariosiyo tumani | 428,0 | 102,3 |
| Termiz tumani | 349,6 | 114,2 |
| Uzun tumani | 269,2 | 110,2 |
| Sherobod tumani | 688,3 | 106,8 |
| Sho'rchi tumani | 551,1 | 112,4 |

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Termiz shahrida (4 200,1 ming so'm), Termiz tumanida (3 981,6 ming so'm) Sherobod (3 189,6 ming so'm), Muzrabot (2 985,0 ming so'm) tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (2 725,8 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, Viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 104,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, Bandixon tumanida (117,5 %), Qumqo'rg'on tumanida (113,6 %), Termiz tumanida (110,8 %) qayd etilib viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar-iyun oylarida



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2025-yilning yanvar-iyun oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 7 388,3 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (91,5 %)ni tashkil etgan holda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 200,6 mlrd so'm (2,5 %), elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 321,6 mlrd so'm (4,0 %) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 157,8 mlrd so'm (2,0 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi,
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2025-yilning yanvar-iyun oylarida



III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2025-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda 20,7 ming tonna boshqa paxta chigiti (2024-yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan 3,4 m % ga ko'paygan), 33,1 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (168,9 % ga ko'paygan), 3 055.5 aroq ming l 100 % li spirt aroq mahsulotlari (43,7 m. ga ko'paygan) hamda 14,3 ming tonna paxta tolasi (2,0 m) % ga ko'paygan).

| Sanoat mahsulotlari | 2023-yil yanvar-iyun* | 2024-yil yanvar-iyun* | 2025-yil yanvar-iyun |
|--------------------------------------|-----------------------|-----------------------|----------------------|
| Aroq, ming litr | 104,5 | 69,9 | 3 055,4 |
| Qoramollar uchun tayyor ozuqa, tonna | 8 364 | 7380 | 14430 |
| Paxta tolasidan yigirilgan ip, tonna | 11949 | 15405,3 | 20046,8 |
| Neft bitumi, ming t | 25,8 | 23,9 | 20,7 |
| Tabiiy qumlar, ming t | 4,9 | 24,9 | 12,2 |
| Toshko'mir, ming t | 144,8 | 264,5 | 268,8 |
| Xom neft, ming t | 38,7 | 35,9 | 32,8 |
| Boshqa paxta chigiti, ming t | 13,5 | 6,1 | 20,7 |
| Kepak, ming t | 5,3 | 5,1 | 11,0 |
| Portlandsement, ming t | 411,5 | 525,7 | 114,5 |

**2023-2024-yillarning yanvar-iyun oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*


Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 19,4 % (2024-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 104,1 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 39,1 % (2024-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 106,5 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,7 % ni (2024-yilning yanvar-iyun oylarida 0,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 0,6 % (1,0 %), o'rta-quyi texnologiyali – 26,2 % (24,7 %), quyi texnologiyali 72,5 % (74,0 %) ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalaridan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2025-yilning yanvar-iyun oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 107,9 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 79,6 % ni tashkil etdi.

| Sanoat mahsulotlari | 2023-yil yanvar-iyun* | 2024-yil yanvar-iyun* | 2025-yil yanvar-iyun |
|--------------------------------|-----------------------|-----------------------|----------------------|
| Elektrenergiya, mln.kvt.s | 200,3 | 334,0 | 360,5 |
| Issiqlik energiyasi, ming gkal | 14,8 | 11,7 | 9,3 |

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 3,3 m. ga ko'payish kuzatildi. Shuningdek, xavfsiz chiqindilarga butunlay yo'qotish uchun ishlov berish bo'yicha xizmatlar 2,8 m. ga ko'payish kuzatildi.

| Sanoat mahsulotlari | 2023-yil yanvar-iyun* | 2024-yil yanvar-iyun* | 2025-yil yanvar-iyun |
|---|-----------------------|-----------------------|----------------------|
| Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm | 4,3 | 4,1 | 13,9 |
| Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm | 28,4 | 39,6 | 70,2 |
| Xavfsiz chiqindilarga butunlay yo'qotish uchun ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm | 7,5 | 8,5 | 23,4 |

**2023-2024-yillarning yanvar-iyun oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 5 807,5 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 72,0 % ni tashkil etdi. 2024-yilning yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 59,2 % ni tashkil etgan.



V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarni yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish Surxondaryo viloyatidagi faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asosanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslar bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C - Ishlab chiqarish sanoati

D - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbghehch5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:

J. Mallayev
76 225-65-76 (7510)

Manzil:

